

## KITO BXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MAK TAB HAMDA KUTUBXONA HAMKORLIGINING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

R. T. Umarov - o'qituvchi,  
Abdullaeva F. - magistrant  
A.Qodiriy nomidagi JDPU, Jizzax sh.

**Annotatsiya:** Maqolada o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllanti rishda mak tab hamda kutubxona hamkorligini ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlariga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** kitobxonlik madaniyati, kutubxona, kutubxona fondi, kitob fondi, adabiyotlar, hamkorlik.

**Аннотация:** В статье рассматриваются педагогические условия обеспечения взаимодействия школы и библиотеки в формировании читательской культуры у учащихся.

**Ключевые слова:** культура чтения, библиотека, библиотечный фонд, книжный фонд, литература, сотрудничество.

Ta'lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish o'quvchilar da kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik jihatlarini takomillashtirish bilan bog'liqdir. Bu esa o'sib kelayotgan avlod ma'naviyatini istiqlol talablari asosida shakllantirish vazifalarini amalga oshirish, maktab kutubxonalaridagi kitob fondi va adabiyotlarni o'quvchilar o'rtasida keng va maqsadli targ'ib qilish ishlari ning samara dorligini oshirishni talab etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkiliy-pedagogik jihatdan tizimli tahlil etish, o'z navbatida, bu jarayonning belgilarini o'rganishni talab etadi. Ana shu tizimning markaziy qism laridn biri - mak tab kutubxonasingin kitob fondidir.

Mazkur maqolada o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllanti rishda mak tab hamda kutubxona hamkorligini ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlari ustida to'xtalib o'tiladi.

Mak tab kutubxonasingin kitob fondi asosan darsliklar va fanning turli sohalariga oid nashrlar, o'qituvchilar uchun metodik adabiyotlar hamda badiiy asarlardan tashkil topadi. Kitob fondiga o'quv dasturlari bo'yicha sinfdan tashqari o'qish uchun adabiyotlar, maktab o'quvchilari va pedagogik jamoa uchun vaqtli matbuot nashrlari, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-pedagogik va alohida fanlarni o'qitish metodlariga oid adabiyotlar ham kiradi. Shu bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy, tabiatshunoslikka oid ilmiy-ommabop adabiyotlar, texnika, qishloq xo'jaligi, tibbiyot va sog'liqni saqlash, san'at, falsafa, jismoniy tarbiya va sport, adabiyotshunoslik, pedagogika, fan sohalari

bo'yicha metodik adabiyotlar kiritilishi kerak. Shuningdek, maktab kutubxonasining kitob fondiga o'quvchilarning o'quv vazifalarini bajarishi hamda pedagoglarning darsga tayyorgarlik ko'rish lari uchun zarur bo'lgan lug'atlar, ma'lumotlar, ensiklopedik asarlar va turli bibliografik nashrlar kiritilishi zarur. Bu esa kitob fondida universal yoki boshqacha qilib aytganda, barcha fan tarmoqlariga oid asarlar bo'lishini talab etadi. Kitob fondi o'quvchilarga to'laqonli ta'lim-tarbiya berishning barcha yo'nalishlari: aqliy, axloqiy, vatanparvarlik, mehnat, estetik, jismoniy ta'lim-tarbiya hamda kasbga yo'naltirishga oid adabiyotlardan ham iborat bo'ladi.

Aniqlangan ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, bugungi kunda maktab kutubxonalari fondida asosiy o'rinni badiiy asarlar egallab kel moqda. O'quvchilarning umumtexnikaviy dunyoqarashini kengaytirish uchun kutubxona fondida texnikaga doir adabiyotlar ham to'planishi maqsadga muvofiqdir. Tasviriy san'at, musiqa, me'morchilik, teatr, kino, fotografiya, aktyorlar va san'atkorlar hayoti va ijodi, shuningdek, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarimizni tiklash haqidagi asarlar o'quvchilarda badiiy estetik didni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maktab kutubxonasi fondini shunday asarlar bilan boyitish lozim.

Maktab kutubxonasi fondini shakllantirish, adabiyotlar tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ya'ni boshlang'ich sinflar I-IV, umumiyligi o'rta ta'lim tizimining o'rta bo'g'ini V-IX va yuqori X-XI sinf o'quvchilari hamda o'qituvchilar uchun tabaqalashtirilgan kitob fondini yaratish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Hozirgi sharoitda maktab kutubxonalari fondining sohalar bo'yicha tarkibi, o'quvchilarni kitob bilan ta'minlanish me'yori qanday bo'lishi kerak? degan savol ko'pchilik kutubxonachilar va o'qituvchilarni qiziqtirmoqda. Bunga aniq me'yirlarni ko'rsatishning iloji yo'q, chunki maktab kutubxonasi fondining tarkibi shu maktab joylashgan mintqa (shahar yoki qishloqda ekanligi), maktab turi, ta'lim qaysi tilda amalga oshirilishi va boshqa bir qator sharoitlarga bog'liqdir. Ma'lumki, o'quvchilarda tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-g'oyaviy bilimlar va dunyoqarashni shakllantirish vazifasini biron-bir muayyan o'quv predmetini o'qitish doirasida amalga oshirish mumkin emas. Buning uchun madaniy-ma'rifiy hamda ta'lim-tarbiya jarayonini uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur tizimda maktab kutubxonasi o'quvchiga eng yaqin bo'lgan ta'lim-tarbiya hamda ma'rifat maskani sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham maktab kutubxonalarining o'quvchi bilan doimo birgaligini e'tiborda tutgan holda o'quvchining kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda o'quv jarayoni va kutubxona hamkorligini ta'minlashga erishish lozim. Har bir o'quvchining o'ziga xos qiziqishlarini e'tiborga olgan holda yondashish, ta'lim-tarbiyaviy hamda ma'rifiy ta'sir o'tkazish usullari yordamida o'quvchilarning o'quv predmetlarini muvaffaqiyatli o'rganishlari, ularning aqliy, axloqiy, estetik, badiiy va jismoniy jihatdan kamolotga erishishlari uchun imkoniyat yaratish lozim. Bu imkoniyat maktab kutubxonasini zaruriy adabiyotlar bilan boyitib borishda, ularni

targ‘ib qilish hamda kutubxonaning axborot xizmati ko‘rsatish ishlarida o‘z aksini topadi. Kutubxona - maktabning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu jihatdan u o‘quv-tarbiya jarayonining barcha yo‘nalishlarida faol qatnashishi lozim.

Afsuski, ta’lim-tarbiya tizimida katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan mak tab kutubxonasing tutgan o‘rni va uning faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha muammolar ta’limni rivojlantirish haqidagi bir qancha davlat hujjatlarida ham, pedagog olimlarning tadqiqotlarida ham e’tibordan chetda qolib kelmoqda. Ushbu muammoni tadqiq qilish natijasida ma’lum bo‘ldiki, maktab kutubxonasing ta’lim-tarbiya jarayonida tutgan o‘rni, o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda maktab bilan hamkorlikdagi imkoniyatlarini belgilovchi va faoliyatini takomillashti rish bo‘yicha alohida ilmiy tadqiqotlar haligacha amalga oshirilmagan. Shu boisdan ham bu mavzuni o‘rganish ijtimoiy-pedagogik zarurat darajasidagi masala hisoblanadi. Ko‘rinadiki, mazkur muammoni tadqiq qilish bugungi kunda o‘ta dolzarb muammolardandir.

O‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda maktab hamda kutubxona hamkorligini ta’minalash bo‘yicha alohida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi quyidagi sabablarga ko‘ra yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda:

-mazkur mavzuda bugungi kunga qadar maxsus pedagogik izlanishning amalga oshirilmaganligi;

-o‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda maktab hamda kutubxona hamkorligining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari, metodologik asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

-maktab kutubxonalari faoliyatini takomillashtirish, uni umumta’lim va umumtarbiyaviy faoliyatning uzviy bo‘g‘ini sifatida baholab yondoshish talab darajasida emasligi, mazkur ijtimoiy-pedagogik institutlar orasida hamkorlikning ta’minalmaganligi;

-maktab kutubxonalari ishini O‘zbekiston maktablari oldiga qo‘yilgan shu kungi talablardan kelib chiqqan holda maqsadli faollashtirish yo‘llari va usullarini belgilab beruvchi me’yoriy hujjatlar va uslubiy tavsiyalarning ishlab chiqilmaganligi;

-maktab kutubxonalari faoliyatini o‘quvchilar ongida milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirish talablari doirasida yoshlarni tarbiyalashning muhim markazi sifatida tizimli takomillashtirish yo‘llarining nazariy asoslab berilmaganligi.

Xulosa qilib aytganda, komil inson bo‘lib yetishish uchun kitobning o‘rni beqiyosdir. O‘quvchilarni kitob bilan ishilashga odatlantirish ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Kitobxonlik yoshlarning ma’naviy boyligini oshiradi, ularni mehnat va ijodiy yo‘lga boshlaydi. Kitob hayotning ulug‘vorligini anglab olishga, u haqida mustaqil fikr yuritishga yordam beradi. Ayniqsa maktab kutubxona larining o‘quvchi bilan doimo birgaligini nazarda tutgan holda o‘quvchining

kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda o‘quv jarayoni va kutubxona hamkorli gini ta’minlashga e’tibor qaratish lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Islomov E., Yo‘ldoshev E. Maktab kutubxonasi ishini tashkil etish.- Т.: O‘qituvchi, 1992.- 88 b.
2. Ziyoev S.A., Roziqova Yo.M. Yoshlarning ma’naviy tarbiyasida maktab kutubxonasining o‘rni //Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasining 60 yilligi (1934-1994 yillar): Ilmiy-amaliy anjuman tezislari.- Т., 1994. 33-34-betlar.
3. Yo‘ldoshev E. Kutubxonada bolalar o‘qish madaniyatini tarbiyalash: O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 1986.- 48 b.
4. Mahmudov M.X. Abdurazzoqova G.S. Maktab kutubxonasi va o‘qituvchilarga kutubxona xizmati ko‘rsatish: Metod.tavsiyanoma.- Т., 1992. -38 b.